



Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!

Vaziyat

2024 йил
10 октябрь
№ 41 (982)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

МУАММОЛАР ЎРГАНИЛДИ



Фавқулодда вазиятлар вазирининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник С.Зупаров раҳбарлигида Тошкент вилояти ФВБ бошлиғи ва шахсий таркиби билан вилоят ҳудудида куз-қиш мавсумига тайёргарлик юзасидан муҳокама бўлиб ўтди

ча бажарилаётган ишлар сифатига баҳо берилди. Хавфли ҳудудлардаги дарёлар, сойлар ва каналлар, қирғоқ ва дамбалар мустаҳкамлиги ҳамда ички ариқлар ва магистрал каналлар тозаланиши борасида сўз юритилди.

лари хавфини камайтириш бўйича кечиктириб бўлмайдиган вазифалар ҳақида айтиб ўтилди. Жараёнда мутасаддиларга аҳолини ва ҳудудларни тошқинлар, сел оқимлари ва кўчки ҳодисалари билан боғлиқ



Тизим ходимларини онгу тафаккурига Ватан ва халқ манфаатларига хизмат қилиш шарафли ҳамда муқаддас бурч эканини англатиш, қасамёдига содиқ бўлиш ва касбий бурчини бажаришда қонунийликка қатъий риоя этиш борасида муҳим фикрлар билдирилди. Аҳолини ва

Унда куз-қиш мавсумини бета-лофат ўтказиш, одамлар кўп йиғиладиган савдо марказлари ва ижтимоий-иқтисодий соҳа объектларида содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва ёнгин хавфсизлигини таъминлаш тадбирларини самарали ташкил этиш, шунингдек, содир бўлган ёнгинларни тезкорлик билан бартираф этиш бўйича шахсий таркибнинг жанговар ҳаракатлари танқидий ва таҳлилий кўриб чиқилди. Шунингдек, мамлакатимизда етук ва малакали ҳарбий кадрларни тайёрлаш, уларнинг оилалари учун муносиб ҳаёт шароитларини яратиш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бирига айлангани таъкидланди.

ҳудудларни қор кўчкиси, сел-тошқин ва кўчки ҳодисалари билан боғлиқ фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш бўйича муҳим фикр-мулоҳазалар баён этилди. Гидротехник иншоотлар, сув омборлари ва сел-сув омборларида юзага келиши мумкин бўлган авариялар ва фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш бўйи-



фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш бўйича тегишли тавсиялар берилди. Ходимларнинг жисмоний тайёргарлигини ошириш, одамлар ҳаётига хавф солувчи ва давлат ҳамда жамоат мулкига зарар етказувчи, эҳтиётсизлик ёхуд бепарволик оқибатида келиб чиқадиган ёнгин-

Таъкидланганидек, кун сайин ҳаво совиб, қиш мавсуми бошланмоқда. Қиш мавсумида аҳолининг табиий ва суюлтирилган газга бўлган талаби ҳам кескин ошади. Ижтимоий соҳа объектлари ва кўп қаватли уй-жойлар куз-қиш мавсумига қай даражада тайёр эканлигини синовдан ўтказди. Шу боис мамлакатимизнинг ҳар бир ҳудудида мавсумга тайёргарлик ишлари жадал давом эттирилмоқда.

Ўрганиш давомида тошқин сувлари ва сел оқимларини хавф-хатарсиз ўтказиб юборишни таъминлаш, қор кўчиши ва ер кўчкиси ҳодиса-

ларнинг олдини олишга қаратилган кенг қўламли профилактика тадбирларини мунтазам ҳамда самарали йўлга қўйиш жоизлиги қайд этилди. Шунингдек, ёнгин-қутқарув экипажларининг жанговар шайлиги ҳамда махсус техникалар ҳолати кўздан кечирилди.

Ушбу саъй-ҳаракатлар аҳолига қулай шароитлар яратиш ҳамда турли кўнгилсизликларнинг олдини олишга хизмат қилади.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

УЧРАШУВ

Урганч ҳарбий прокуратураси ва Хоразм вилояти ҳокимлиги, Мудофаа вазирлигига қарашли ҳарбий тузилмалар ҳамкорлигида “Жалолоддин Мангуберди” номидаги ҳарбий-академик лицейда “Уч авлод учрашуви” ташкил этилди.

Унда фахрийлар ўз ҳаёт ва хизмат хотиралари билан ўртоқлашиб, ватанга садоқат билан хизмат қилиш энг олий саодат эканлигини таъкидладилар.

Шунингдек, Янгиариқ туманининг чегараолди ҳудудида ватанпарварлик тадбири ўтказилди.

Унда маҳаллалар ёшлари, шужумладан, ҳудуддаги мактаблар ўқувчилари иштирок этдилар.

Жараёнда турли спорт мусобақалари ўтказилиб, ғолиблар муносиб тақдирландилар.

Азиз АЛИМҚУЛОВ,
Урганч ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия капитани.

МУҲИМ МАСАЛАЛАР ЕЧИМИ

Пешку туманида “Раҳбар ва ёшлар учрашуви” ўтказилди.

Туман ҳокимлиги, Бухоро ҳарбий прокуратураси ва вилоят ФВБ ҳамкорлигида ташкил этилган тадбирда ёшлар билан дилдан суҳбатлашилди.

Тадбирда иштирокчилар орасидан тенгдошларига ўрнак бўлган ва ижобий натижаларга эришган ёшлар-

га эсдалик совғалари ва фахрий ёрликлар топширилди.

Учрашув сўнггида ёшлар Абу Али ибн Сино музейида бўлиб, тиббиёт тарихи билан яқиндан танишдилар.

Шунингдек, ёнгин-қутқарув анжумлари кўргазмаси ташкил этилди.

Меҳриддин НАЗАРОВ,
Бухоро ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия подполковниги.

ЎҒРИ



25 ёшли Т.Н. шу пайтга қадар ўғрилиги ҳамда бошқа жиноятни содир этганлиги учун икки мартаба судланган. Аммо ҳулоса чиқармаган экан. Ҳалол меҳнат қилиб даромад топиш ўрнига яна жиноятга қўл урган. У шу йилнинг биринчи май куни тунда Яшнобод туманида жойлашган якка тартибдаги тадбиркорга қарашли янги қурилган озиқ-овқат дўконининг деразаси орқали ичкарига кириб, кассадаги 8.100.000 сўмни ҳамда 635.000 сўмлик буюмларини ўғирлаб, воқеа жойидан яширинган. У 9 май куни яна ўзганинг мулкани яширин равишда талон-торож қи-

лиш мақсадида ярим тунда Яшнобод тумани “Авиасозлар” кўчасида жойлашган озиқ-овқат дўкони олдида борган. Атрофда ҳеч ким йўқлигидан фойдаланиб дўконга ўрнатилган темир панжаранинг устки қисми очиклигидан фойдаланиб ичкарига кирган. Растада турган бозор нархи 40.000.000 сўмлик тамаки маҳсулотларини ҳамда савдо кассасидаги 8.000.000 сўмни олиб чиқаётган вақтида дўкон эгаси томонидан ушланган.

– Айбимга иқрорман, – деди судланувчи Т.Н. – Оқибатини ўйламадим. Бошқа бундай иш қилмайман. Кечиринглар...

Суд судланувчига жазо тайинлашда барча жиҳатларни эътиборга олди. Ўғирлик жиноятини содир этган Т.Н. суднинг ҳукми билан 3 йил муддатга озодликдан маҳрум қилинди.

Баҳодир ҚАҲОМОВ,
Жиноят ишлари бўйича Яққасарой туман судининг судьяси.

КЎРГАЗМАЛИ МАШҒУЛОТ

Поп тумани ФВ бўлими маъсул ходимлари томонидан 6-жазони ижро этиш колониясида “Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва содир бўлганда ҳаракатланиш тартиби” мавзусида кўргазмали ўқув машғулотини ўтказилди.

Тадбир давомида маъсул ходимлар томонидан ёнгин-қутқарув автомашинаси ва ундаги қутқарув асбоб-анжомлари ҳақида тушунтирилиб, куз-қиш мавсумида содир бўлиши мумкин бўлган ёнгин, чақнаш, ис газидан заҳарланиш ва бошқа фавқулодда вазиятлар-

нинг олдини олиш ҳамда фавқулодда вазиятлар содир бўлганда, қай тартибда ҳаракатланиш тартиби, жабрланганларни қутқариш ва уларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш бўйича тушунчалар берилди.

Машғулот якунида ёнгин содир бўлганда, бирламчи ёнгин ўчириш воситаларидан фойдаланиш тартиби кўрсатиб ўтилди.

Алишер АХРАМОВ,
Поп тумани ФВ бўлими бошлиғи ўринбосари, капитан.

РАҲБАР ВА ЁШЛАР

Анджон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институтида вилоят ФВБ бошлиғи полковник Ботиржон Ашуров, институт раҳбарияти ва талабалари, туман маҳаллаларидаги

оталиққа олинган ёшлар, шунингдек, Ёшлар ишлари агентлиги вакили иштирокида “Раҳбар ва ёшлар” учрашуви бўлиб ўтди.

Учрашув давомида ёшларни қизиқтирган савол ва таклифларига жавоблар берилиб, оталиққа олинган ёшларга бошқарма бошлиғининг бадиий китоблар тўплами эсдалик совға сифатида топширилди.

ОТ УСТИДА БЕЛЛАШУВ

Навоий вилоятида От спортининг “Поло” тури бўйича мусобақа ўтказилди.

Вилоят ҳокимлиги, Миллий гвардия бошқармаси, Навоий ҳарбий прокуратураси ва куч тузилмалари ҳамкорлигида ташкил этилган беллашувда Бухоро ва Самарқанд вилоятлари Чавандозлар мактаблари жамоалари ҳам иштирок этдилар.

Яқуний натижаларга кўра 1-ўринни Бухоро вилояти Чавандозлар мак-

таби, 2-ўринни Самарқанд вилояти Чавандозлар мактаби, 3-ўринни Навоий вилояти Чавандозлар мактаби жамоаси эгаллади ва ғолиб жамоа мусобақанинг республика босқичига йўлланмани қўлга киритди.

Фаррух ЁРИЕВ,
Навоий ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия катта лейтенанти.

МАРОҚЛИ ТАДБИР

Қарши ҳарбий прокуратураси томонидан таълим масканларида ватанпарварлик тадбирлари мунтазам ўтказиб келинмоқда.

Хусусан, Китоб туманидаги 2-умумтаълим мактабида Жануби-Ғарбий махсус ҳарбий округ қўшинлари кўмондонлиги, туман ҳокимлиги вакиллари, ўқитувчилар ва ўқувчилар иштирокида учрашув ўтказилди.

Жараёнда ўқувчилар билан ватанга муҳаббат ва садоқат, ҳарбий хизмат, билим ва меҳнатнинг қудрати мавзуларида дилдан суҳбат қурилди.

Яқунида мактаб кутубхонаси учун китоблар жамланмаси тақдим этилди.

Қурбондурди ПОЛВАННАЗИРОВ,
Қарши ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия капитани.

ОЧИҚ МУЛОҚОТ

Термиз ҳарбий прокуратураси томонидан Сурхондарё вилояти қўриқлаш бошқармасида шахсий таркиб иштирокида очик мулоқот ўтказилди.

Унда “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисидаги қонуннинг мазмун-моҳияти” мавзусида суҳбатлашилди.

Шу каби тадбир ҳарбий қисмларнинг бирида ташкил этилиб унда жиноят, унинг тушунчаси, таснифи, салбий оқибатлари, жавобгарлик ва

жазо муқаррарлиги масалаларида ҳуқуқий тушунчалар берилди.

Ҳарбий тузилмалардан биридаги “Коррупция – жамият кушандаси” мавзусига бағишланган мулоқотда “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонун мазмун-моҳияти юзасидан сўз юритилди.

Тадбир савол-жавобларга бой бўлди.

Далер РАҲМАТИЛЛАЕВ,
Термиз ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия катта лейтенанти.

ВАТАНПАРВАРЛИК

Қашқадарё вилояти ФВБ тизимига бириктирилган Нишон ва Деҳқонобод туманларининг 2-секторида ёшлар иштирокида “Раҳбар ва ёшлар” учрашуви ўтказилди.

Тадбирда вилоят ФВБ масъуллари иштирок этиб, ёшларимизга хизмат фаолияти мобайнида эришган ютуқлари ва босиб ўтган йўллари ҳақида сўзлаб бердилар. Қолаверса, ёшлар ўртасида эркин мулоқот ташкил этилиб, унда масъуллар томонидан “ватанпарварлик” авлоддан-авлодга мерос бўлиб ўтаётган қадрият эканлигини, ҳар бир инсоннинг ўз она заминида яшаши, унинг манфаатлари йўлида фидойи бўлиши юксак олий неъмат эканлиги, шу

қатори, ватан ҳимоячиси, бўлишнинг шарафи ва масъулияти ҳақида кенг маълумотлар берилди.

Жойларда ёшларни ҳарбий ватанпарварлик ва ватанга садоқат руҳида тарбиялашга қаратилган бу каби тадбирлар давом этмоқда.



Ў.ҲАКИМОВ,
Қашқадарё вилояти ФВБ бошлиғи ўринбосари, подполковник.

қилиш органлари, давлат ва жамоат ташкилотлари ҳамкорлигида тизимли ишлар босқичма-босқич амалга оширилмоқда.

А.РАҲМОМОВ,
Анджон тумани ФВ бўлими бошлиғи ўринбосари, капитан.
И.ПОЗИЛОВ,
бўлим инспектори, лейтенант.



ГЕНЕРАЛ БИЛАН УЧРАШУВ

“Ўзбекистон божхона фахрийси”, “Ички ишлар вазирлигида хизмат кўрсатган ходим”, “Ички ишлар вазирлигидаги аъло хизматлари учун” кўкрак нишонлари соҳиби, 1-даражали меҳнат фахрийси, истеъфодаги генерал-майор Ураимжон Абдуғаниев ФВВ Академияси курсантлари билан учрашди. Қахрамонимиз умрининг салмоқли қисмини она-Ватанга хизмат қилишдек шарафли ишга бағишлаган.

Жумладан, 1991 – 1994 йилларда Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг ўринбосари – Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги товар-моддий бойликларни олиб чиқиб кетишни назорат қилиш Давлат инспекцияси Бош бошқармаси бошлиғи, Ўзбекистон Республикаси давлат божхона кўмитаси раиси вазибаларида хизмат қилган. Ибратли хизмат йўлида минглаб шогирдларни камолга етказган. Баркамол авлодни тарбиялаш, ёшларнинг онги ва қалбига ватанпарварлик, садоқат туйғуларини сингдиришда бир қатор савобли ва хайрли ишларни амалга оширган. Фаолияти давомида 40 дан ортиқ илмий мақола, ўқув қўлланмаларини нашрга тайёрлаб, чоп эттирган устоз бугун ҳам ҳаракатда ва изланишда.

Учрашув давомида генерал хизмат фаолияти ҳамда ҳаётининг тажрибалари ҳақида ҳикоя қиларкан, Академия курсантларига хизматда фидойи бўлиш, ўз устида мунтазам ишлаш, билим олиш ва уни амалда қўллашга интилиш, меҳнатсевар ва тиришқоқ бўлиш лозимлигини уқтириб ўтди. Ўз фикрларига ҳаётининг мисоллар келтириб, ёшларни улардан оқилона хулосалар чиқаришга ундади. Ўз навбатида, курсантлар ҳам сўзга чиқиб, устозга миннатдорлик билдирган ҳолда, ўз саволларига атрофлича жавоблар олдилар. Билим олишда, изланишда устознинг ўғитларига амал қилишларини айтдилар.

Тадбир якунида Академия раҳбари генерал-майор Равшан Ҳайдаров генерал-майор Ураимжон Абдуғаниевга ушбу учрашув ва мазмунли суҳбат учун улкан ташаккур билдириб, бу каби давра суҳбатлари келгусида бардавом бўлишига умид билдирди.

Бахшулло ЖАҲОНҚУЛОВ,
ФВВ Академияси ахборот хизмати бошлиғи.

КЕКСАЛАР ҲАФТАЛИГИ

ФВВ Академиясида “Кексалар ҳафталиги” ташкил этилди доирасида Академияда узоқ йиллар давомида самарали меҳнат қилиб, нафақага чиққан бир гуруҳ фахрийлар иштирокида спорт тадбирлари ўтказилди. Кекса авлод вакиллари ўртасида спортнинг шахмат-шашка ва мини футбол турлари бўйича спорт мусобақалари ташкил этилди.

Қизғин ва кўтаринки руҳда, баҳсларга бой тарзда бўлиб ўтган спорт тадбирлари барча фахрийлар қалбида илиқ таассурот қолдирди.

Фирдавс КАРИМОВ,
ФВВ Академияси бўлим бошлиғи, капитан.

НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ УЙҒУНЛИГИ

ФВВ Академиясида Фавқулодда вазиятлар профилактикаси кафедраси ташаббуси билан амалиёт ва назария уйғунлигини таъминлаш мақсадида янги форматдаги семинар-тренинг машғулоти ташкил этилди.

Мазкур тадбир фавқулодда вазиятларни олдини олишнинг долзарб муаммолари ва амалий ечимларига бағишланган бўлиб, ўта муҳим ва тоифаланган объектларнинг ёнғин хавфсизлигини таъминлашнинг самарали тизимини яратишда муҳим аҳамият касб этди.

Анжуман давомида техноген ва табиий хусусиятли фавқулодда вазиятларни олдини олиш, фавқулодда вазиятларнинг салбий оқибатларини камайтириш ва уларни самарали бартараф этиш, курсантларга назарий билим ва амалий тушунчалар бериш, уларнинг билим ва кўникмаларини ошириш, назария ва амалиёт уйғунлигини таъминлаш, ёш олимларнинг илмий ишланмаларини таҳлил этиш, ўта муҳим ва тоифаланган объектларнинг ёнғин хавфсизлигини таъминлаш борасидаги амалга оширилаётган ишлар билан танишиш ҳамда Навоий вилояти “Мурунгов” карьерининг кўриниши акс эттирилган янги макет орқали маскан тавсифини ўрганиш масалаларига аҳамият қаратилди.

Семинарда ФВВ Академияси бошлиғи, генерал-майор Равшан Ҳайдаров фавқулодда вазиятлар тизими учун юқори малакали мутахассис кадрлар тайёрлашда, назария ва амалиёт уйғунлигини таъминлаш жуда муҳим эканлигини таъкидлади. Ёш олимлар ва курсантларга ўз касбининг илми, билимли ҳамда касбий кўникмаларга эга мутахассислари бўлиб етишишларини тилади.

Шунингдек, тадбирда ФВВ “Ўта муҳим ва тоифаланган объектларнинг ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш” бошқармаси бўлим бошлиғи, подполковник Жаҳонгир Соиповнинг “Ўта муҳим ва тоифаланган объектларнинг ёнғин хавфсизлигини таъминлаш борасидаги амалга оширилаётган ишлар”, Навоий кон-металлургия комбинати акциядорлик жамияти ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази бошлиғи полковник Хайрулла Зоировнинг “Навоий кон-металлургия комбинати акциядорлик жамиятининг ёнғин хавфсизлигини таъминлаш борасидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари”, Академия Фавқулодда вазиятлар профилактикаси кафедраси доценти Ҳаёт Шариповнинг “Ишлаб чиқариш корхоналари ва уларнинг ёнғин хавфи” мавзусидаги маърузалари тингланди.

– Мамлакатимизда фаолият юритаётган замонавий ишлаб чиқариш корхоналари турли кўринишдаги сўнгги техник воситалардан фойдаланиб келмоқда, – дейди Жаҳонгир Соипов. – Бу каби ўта муҳим ва тоифаланган объектлар ёнғин, портлаш ва бошқа фавқулодда вазиятларнинг юзага келиши эҳтимоли юқорилиги билан ажралиб туради. Бу каби объектлар хавфсизлигини таъминлаш борасида ҳар йили жуда кўплаб ишлар амалга ошириб келинмоқда. Хусусан, 2023 йилда ёнғинлар профилактикаси мавзуларида рўзнома саҳифаларида 1833 та мақола чоп этилиб, радиотармоқлар орқали 15908 та эшиттиришлар ўтказилди.

Семинар-тренинг маърузачиларига ёш олимлар ва курсантлар томонидан жуда кўп қизиқарли ва айтилган долзарб бўлган масалалар юзасидан саволлар берилди. Амалиёт ходимлари ҳамда тадбирнинг фаол иштирокчиларига Академия бошлиғининг эсдалик совғалари ва ташаккурномалар топширилди.

Сайфиддин ЖУМАЕВ,
ФВВ Академияси Фавқулодда вазиятлар профилактикаси кафедраси бошлиғи,
т.ф.ф.д. (PhD), доцент.

МИЛЛАТ – МАДАНИЯТ ЎЗАГИ

Тилимизга давлат мақоми берилиши истиқлолга эришиш йўлидаги энг муҳим қадам бўлганди. Ватанимиз мустақилликка эришгач она тилимиз ўзининг ҳақиқий ўрни ва мавқеини топди. Она тилимиз ҳозирги кунга қадар бир қатор баланду пастликларни кўрган, кези келганда чўққиларни забт этган, жарлик остонасида заиф ва бахтсиз титраган тилдир. Мустабид тузум даврида миллатнинг маданиятини, санъати ва тилини асраб қолиш учун курашган маърифатпарвар зиёлилар – жадидлар буни теран англаб етган.

Тилнинг муқаррар яшаши, унинг софлиги шу тилдан фойдаланувчи халқнинг тафаккурига ва миллий ўзлигига боғлиқ экани ҳеч ким учун сир эмас. Тил ҳар бир миллат маданиятининг ўзигидир. Шу сабабли ҳам тилнинг сақланиши халқ тарқиёти ва келажакни белгилайди. Тил халқни бирлаштиради, тарбиялайди, ўқитади, урф-одат, анъаналарини сақлайди.

Шохруҳ АСҚАРОВ,
Тошкент шаҳар ФВВ ОЕХТТЭБ инспектори,
капитан.

ИНСОНИЙ ФАЗИЛАТ



“Кексалар ҳафталиги” муносабати билан фавқулодда вазиятлар ва ёнғинларнинг олдини олиш соҳасида узоқ йиллар хизмат қилиб, ҳозирда нафақа гаштини сураётган нуронийлар Бухоро вилояти ФВВга таклиф этилди.

Бошқарма раҳбарияти ва Фахрийлар кенгаши раиси томонидан уларнинг соҳадаги фаолиятлари, устоз сифатида шогирдларига қолдирган бебаҳо хазиналари ёдга олинди, миннатдорчилик билдирилди.

Кексаларга бўлган ҳурмат ва эҳтиром рамзи сифатида бир қатор фахрийларга вилоят ФВВ бошлиғининг ташаккурномаси топширилди. Нуронийларнинг вақтларини сермазмун ўтказишни таъминлаш мақсадида вилоятдаги қадимий обидалар бўйлаб саёҳат уюштирилди.

Н.НУРУЛЛАЕВА,
Бухоро вилояти ФВВ ахборот хизмати ходими.

МУСОБАҚА

Андижон вилояти ФВВ ва унинг таркибий тузилмалари шахсий таркиби ўртасида спортнинг “Кураш” тури бўйича раҳбар кубоги мусобақаси ўтказилди.

Шахсий ҳисобда 7 та вазн тоифалари бўйича шахсий таркиб совринли ўринларни эгаллаши билан бир қаторда, умумжамоа ҳисобида 1-ўрин Шаҳрихон тумани жамоасига, 2-ўрин Андижон шаҳар жамоасига, 3-ўрин эса Балиқчи тумани жамоасига насиб этди.

Ҳаётбек РАҲИМОВ,
Андижон вилояти ФВВ ахборот хизмати
бошлиғи, капитан.
Рустамжон АҲМАДАЛИЕВ,
ахборот хизмати етакчи мутахассиси.

QATOR YUTUQLAR SOHIBASI

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida "Vatan manzumi" nomli ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Unda "Eng yaxshi vatanparvarlik ruhida-gi videorolik", "Eng yaxshi vatanparvarlik ruhida-gi qo'shiq" va "Vatanni madh etuvchi eng yaxshi she'r" yo'nalishlari bo'yicha tanlov g'oliblari taqdirlandi.



Tantanali tadbirida so'zga chiqqanlar tomonidan mamlakatimizda kechayotgan yangilanish jarayonlari har bir yurtodoshimiz taqdirida o'zining yaqqol aksini topayotgani, yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashash har bir yoshning burchi ekani ta'kidlandi.

Mazkur tanlovning birinchi bosqichida "Eng yaxshi vatanparvarlik ruhida-gi videorolik" yo'nalishida uch yuzdan ziyod, "Eng yaxshi vatanparvarlik ruhida-gi qo'shiq" yo'nalishida qariyb 300

ta, "Vatanni madh etuvchi eng yaxshi she'r" yo'nalishida esa mingdan ortiq ijodiy ishlar ko'rib chiqilgan.

Tantanali tadbirida bir qator ijodkorlar o'z yo'nalishi bo'yicha g'olib deb topildi. G'oliblar orasida "Qamchiq" MQYOQB xodimasi kichik serjant Mohichehra Mingboyeva ham bor. U "Vatanparvarlik ruhida-gi eng mazmundor va ta'sirchan qo'shiq" nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Darvoqe, shu o'rinda aytish lozimki, M.Mingboyeva "To'maris" ko'krak nishoni sohibasi, "Xaloskorlar", "Leytenant", "Harbiy bo'lish", "To'maris izdoshiman!" kabi qo'shiqlar muallifi hamda ijrochisi, qator ko'rik-tanlovlar g'olibasi hisoblanadi. Mohichehraga biron bir vazifa yuklatildimi, uni oxirigacha mukammal darajada yetkazmay qo'ymaydi. Ota-onasini, oilasini juda sevadi. Bolalikdan harbiylikka qiziqishi o'ta yuqori bo'lgan. 2008 yilda sportning "Taekvan-do WTF" turi bo'yicha 7 - 16 yoshli rangli belbog' sohiblari o'rtasida o'tkazilgan Angren ochiq birinchiligi g'olibasi bo'lgan. Boshqarmaning Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tashkilotlari bilan

ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassisi lavozimida ishlab, qanchadan-qancha maqolalar muallifiga aylandi, shuningdek, u tasvirga olgan videolavhalar respublika miqyosida ommaga havola qilinib, suratga olgan fotolavhalari vazirlikning gazeta va jurnallarida chop etildi. Qurolli Kuchlar muzeyi, FVV va viloyat boshqarmalarida namunaviy foto sifatida peshlavhalarga muhurlandi. Hozirda u "Qamchiq" dovonida tinimsiz mehnat, metin iroda bilan kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan xizmat qilib kelmoqda.

Mohichehradagi shijoat shu darajadagi, bir qarasangiz, qutqaruvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda, yana bir qarasangiz, boshqarma profilaktika bo'limi xodimlari bilan "Qamchiq" dovoni hududida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish bo'yicha korxonalar, tashkilot va ish bilan band bo'lmagan aholi o'rtasida profilaktik tushuntirishlar olib borayotgan bo'ladi. Bundan tashqari, davlat tadbirlarida boshlovchilik qilib qo'shiqlar kuylaydi. Mohichehra rahbariyat tomonidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajaradi.

Qahramonimiz bugungi kunda sport, san'at hamda kasbiy yo'na-



lishida juda ko'plab yutuqlarga erishib kelyapti. Sevimli odatlaridan biri kitob o'qishdir. Hozirgi kunga qadar o'z shaxsiy kutubxonasini ham yaratgan. Badiiy kitoblarni, ayniqsa, harbiy sohaga oid siyosiy kitoblarni sevib mutolaa qilganligi bugungi xizmat faoliyatida qo'l kelmoqda. Elu yurtim deb yashayotgan, hayotda ham, xizmat faoliyatida ham ulkan yutuqlarga erishib, barchaga ibrat hamda namuna bo'lib kelayotgan insonlar haqida qancha gapirsang, shuncha kam. Muhimi shundaki, ana shunday olijanob, vatanparvar, jasoratli yigitlardan qolishmaydigan hamkasbimiz - kichik serjant Mohichehra Mingboyevani, chinakam ma'noda, To'maris izdoshi deyishimiz mumkin. O'z navbatida, qahramonimizga kelgusidagi xizmat faoliyatida ham bugungidek ulkan yutuqlar va muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilab qolamiz.

Anvar QOBILOV.

AMALIY MASHQ

Andijon viloyati Bojxona boshqarmasi bojxona omborida viloyat FVB, Andijon tez tibbiy yordam markazi va Bojxona boshqarmasi bilan hamkorlikda "Yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda sodir bo'lganda bartaraf etish" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Unda bojxona omborlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini tugatish bo'yicha boshqaruv organlari hamda kuchlarini samarali qo'llash yuzasidan rahbarlar tarkibi va bo'linmalarining hamkorligini takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarning kimyoviy zaharlanishlar, yong'inlar va vayronalarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilimla-



rini oshirishga qaratildi. Kelib chiqqan yong'in o'chirish hamda qutqarish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish jarayonlari amalda bajarildi.

Azizbek YARKULOV,
Andijon shahar FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, kapitan.
Muhammadjon QO'ZIBOYEV,
bo'lim inspektori.

TUNGI REYD

Namangan viloyati FVB hamda Davlatobod tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish maqsadida tunda insonlar qoladigan maskanlar, xususan, talabalar turar joylarida tungi tekshiruvlar o'tkazib borilmoqda.



Jumladan, tuman hududidagi talabalar turar joylarida ishlaydigan mas'ul o'qituvchilar va talabalarga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanish va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan qo'shimcha yo'riqnomalar berib borilayapti.

Tekshiruv davomida aniqlangan kamchiliklarni o'z o'rnida bartaraf etish choralari ko'rilmoqda.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot
xizmati yetakchi mutaxassisi.
Avazbek ABDULLAYEV,
Davlatobod tumani FV bo'limi
boshlig'i, podpolkovnik.

Buxoro shahridagi "Muzaffar Rajabov" nomidagi aralash jang sport majmuasida sportning "Qo'l jangi" turi bo'yicha "Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi kubogi" musobaqasi o'tkazildi.

SOVRINDORLAR ANIQLANDI

Musobaqa viloyatning shahar-tuman FV bo'limlari yong'in-qutqaruv qismlari hamda yong'in-qutqaruv otryadi harbiy xizmatchi va xizmatchilar o'rtasida o'tkazildi. 27 ta jamoa ishtirokida kechgan bellashuv hakamlar tomonidan adolatli baholab borildi.

Musobaqa yakunida faol ishtirok etganlar va sovrindorlar viloyat FVB rahbariyati tomonidan medal, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

A.G'ULOMOV
Buxoro viloyati FVB XvaJTTEB
xodimi, mayor.

QIZG'IN BAHS

Qashqadaryo viloyati "Sho'rtan gaz kimyo" MCHJ ishchi xodimlari bilan "Zilziladan oldin, zilzila vaqtida, zilziladan so'ng aholining harakati" hamda "Diqqat, hammaga" ogohlantiruvchi signalni berish va shaxsiy tarkibning signalga asosan harakatlanish tartibi" mavzularida o'quv seminari o'tkazildi.

Tadbir mavzuga doir tayyorlangan slaydlar taqdimoti va dolzarb hamda hayotiy misollar keltirish yo'li bilan mazmunli o'tdi. Tadbirida korxonaning xabar berish tizimi holati, uni



samarali olib borish borasida qizg'in fikr-mulohazalar bildirildi.

I.MUQIMOV,
Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M
o'qituvchisi.

SEMINAR

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetiga qarashli 69-talabalar turar joyida favqulodda vaziyat va yong'in xavfsizligining oldini olish yuzasidan seminar o'tkazildi.

Olmazor tumani FV bo'limi harbiy xizmatchilari, tuman IIOFMB xodimlari, institut rahbarlari ishtirok etgan tadbirida sodir bo'layotgan yong'inlarning kelib chiqish sabablari, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, qilinishi

lozim bo'lgan vazifalar, shuningdek, sodir bo'lgan yong'in oqibatlari to'g'risida aytib o'tildi. Shu bilan birga yong'in o'chirish texnikasi asbob-anjomlari va har bir jihozlar bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Is gazidan zaharlanib qolmaslik choralari, kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazishga targ'ib qiluvchi videorolik namoyish etildi.

Sarvar ANOROV,
Olmazor tumani FV bo'limi
P va NB inspektori, kapitan.

EHTIYOTKORLIK – DAVR TALABI

Aholi turar joylaridan tashqari ishlab chiqarish korxonalarida sodir bo'lgan yong'inlar kishilarning samarali mehnat faoliyatiga zarar, iqtisodiyotga ham jiddiy putur yetkazadi. Mana shunday nohush holatlarning oldini olishda Toshkent shahar FVB harbiy xizmatchilari ham faol harakat qilib ke- layotir.

Jumladan, aholi o'rtasida yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik, gaz va elektr tarmoqlarini o'zboshimchalik bilan ulab olish, nosoz isitish uskunalardan foydalanish



kabi holatlarni aniqlash uchun mahalla faollari yordamida o'rganishlar o'tkazib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilmogda.

Tursunboy BUZURUKOV,
"Ma'rifat markazi" YXTTEB
YN va PB kichik inspektori,
katta serjant.

O'QUV MASHQI



Pop tumani "Xo'jaobod" MFYdagi "Art soft cotton" MCHJga qarashli Paxta qabul qilish maskanida "Paxta – 2024" mavsumi oldidan tuman FV bo'limi hamda daxldor tashkilotlar bilan hamkorlikda yong'in o'chirish maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Jarayonda shartli ravishda sodir bo'lgan yong'inni, tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi yong'in qutqaruvchilarni tomo-

nidan bartaraf etish va daxldor tashkilotlar tomonidan taalluqliligi yuzasidan belgilangan vazifalar amalda ko'rsatib berildi.

Mashqda jamiyatga qarashli paxta qabul qilish punkti va qayta ishlash maskani yong'in qutqaruv bo'linmalari boshliqlari va tuman hamkorlikdagi FVDT quyi tizim tashkilotlari ishtirok etdilar.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB
axborot xizmati yetakchi
mutaxassisi.

O'tkirjon MAMASODIQOV,
Pop tumani FV bo'limi TB
boshlig'i, leytenant.

MATBUOT ANJUMANI

Qarshi shahridagi Jurnalistlar uyida viloyat FVB mas'ullari ishtirokida "Kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, aholi o'rtasida is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va yong'inlarning oldini olish bo'yicha viloyatda amalga oshirilayotgan ishlar" mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Unda kuz-qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida olib borila-



yongan amaliy ishlar haqida tahliliy ma'lumotlar berildi.

Jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob oldilar.

Sohibjon VAYITOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
axborot xizmati boshlig'i, mayor.

YER OSTI SUV OLGICHLARI

"Gazli gazni qayta ishlash zavodi" OBYOXTTEB xodimlari tomonidan hududda mavjud yer osti suv olgichlarining sozlik holati o'rganildi. Yer osti suv olgichlarining doimiy shayligini ta'minlashdan ko'zlangan asosiy maqsad, yong'inlarni tez fursatda bartaraf etish va tezkorlikni ta'minlashdan iborat. Tadbir davomida yong'in qutqaruvchilari tomonidan yer

osti suv olgichlari ishlatib ko'ril- di, suv dastaklarining shayligi ta'minlandi, sinovdan o'tkazildi. Neft saqlash rezervuarlarini sovitish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlarning ko'lamini kamaytirishga xizmat qiladi.

Nuriddin TO'XTAYEV,
Buxoro viloyati FVB
Gazli NGQChB OBYOXTTEB
boshlig'i, mayor.

Xorazm viloyati FVB xodimlari tomonidan yangi qurilayotgan ko'p qavatli aholi turar joylari, ma'muriy binolarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida tushuntirish targ'ibot ishlari o'tkazilmogda.

XAVFSIZLIK BIRINCHI O'RINDA

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan 1280 ta loyiha hujjatlari respublikada harakatda bo'lgan me'yoriy hujjatlar talablari asosida, mas'ul xodimlar tomonidan o'rganib chiqilib, 1047 ta loyiha hujjatlari ijobiy kelishildi va 233 ta loyiha hujjatlari aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqti- da bartaraf qilinishi yuzasidan zarur choralar ko'rildi.

Joriy yil boshidan 550 ta qurilish obyekt- lari ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 364 ta obyektlar foydalanishga qabul qilindi, 186 ta obyektlarda qurilish ishlari davom etmogda. Vakolatli organni xabardor qilish tartibida 105 ta qurilish obyektlarida tekshiruvlar o'tkazilib, shundan 74 tasiga ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi.



Qurilishi davom etayotgan bino va in- shootlarning maydonlarida, shuningdek, qurilish-montaj ishlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun muhim qoidalarga amal qil- ish zarur.

Ilhomjon MADRIMOV,
Xorazm viloyati FVB bo'lim boshlig'i,
kapitan.

MAVSUM

Bugungi kunda Jizzax viloyati FVB va Mirzacho'l tumani FV hamda Ichki ishlar bo'limlari xodimlari tomonidan



tumanda "Paxta-2024" mav- sumida paxtani terish, tashish, saqlash va qayta ishlashda favqulodda vaziyatlarning ol- dini olish, yong'in xavfsizligi va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbir- lar tashkil etildi.

O'rnatilgan tartibda korxonalarda yong'in xavfsizligi talablari- ga rioya qilinishi yu- zasidan o'rganishlar o'tkazilib, korxona- larda yong'in-texnik komissiya va ko'ngilli yong'in o'chirish dru-

jinalari tashkil etilganligiga, yong'in o'chirishning birlamchi vositalari mavjudligiga, yon- g'inga qarshi suv ta'minotining yaroqliligiga, paxtani g'aram- dan titib oluvchi mexanizm uchlari uchqun chiqarmay- digan metallardan iboratligiga e'tibor qaratildi.

Iftixor UMAROV,
Jizzax viloyati FVB axborot
xizmati rahbari, kapitan.
Dilmurod HAYITOV,
Mirzacho'l tumani FV
bo'limi boshlig'i, kapitan.

YONUVCHI MODDA VA MATERIALLAR

Yonuvchi modda va mate- riallar turiga qarab yong'inlar A,B,S,D va quyi A1, A2, B1, B2, D1, D2,D3 sinflarga bo'linadi:

"A" sinfiga mansub yong'in- larga qattiq yonuvchi modda va materiallarning yonishi kiradi. Shu bilan birgalikda tutab yon- sa, masalan: yog'och, qog'oz, to'qimachilik matolari va shun- ga o'xshashlar, bu yong'inlar "A1" sinfiga mansub bo'ladi, tutamasdan yonadigan plast- massalar "A2" sinfiga kiradi.

"B" sinfiga mansub yong'inlarga yengil alan- galanuvchi hamda yonuvchi suyuqliklarning yonishi kira- di. "B1" quyi sinfga mansub bo'lib, agar aralashadigan suyuqlik (spirtlar) bo'lsa "B2" quyi sinfiga kiradi.

Metallarning yonishi "D" sinfiga kiradi, bunda "D1" quyi sinfiga yengil metallar- ning ya'ni aluminiy, magniy va ularning eritmaları man- sub bo'ladi, "D2" quyi sinfi

ishqorlar va boshqa shunga o'xshash metallar natriy va kaliyning yonishi, "D3" quyi sinfi esa metallar tarkibida metallorganik materiallarning yonishiga mansub bo'ladi.

M.NURULLOYEV,
Buxoro viloyati FVB Mub- orak NGQChB OBYOXTTEB
21-YQQ smena boshlig'i,
katta leytenant.

YO'RIQNOMA

Chinoz tumani "Kattatepalik" mahallasidagi 45- va "Yo'ltushgan" MFYdagi 9-umumta'lim maktablarini qayta qurish belgilangan. Tuman FV bo'limi tomonidan obyektlarni qayta qurish ishlari o'rganib chiqildi. Qurulish tash- kiloti rahbariyatiga hamda ishchi xodimla- riga qurilish davrida shaharsozlik va qurilish me'yorlari qoidalariga asosida yong'inga qarshi tadbirlarni to'liq bajarish zarurligi yuzasidan tavsiyalar berildi.

O'rganishlar davomida yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha yo'riqnoma o'tkazildi.

Azizbek QO'SHAQOV,
Chinoz tumani FV bolimi boshlig'i
o'rinbosari, mayor.
Abdulla ABDULLAYEV,
bo'lim katta inspektori, katta serjant.

TEXNOPARKDA PROFILAKTIKA

Yashnobod tumani FV bo'limi profilaktika ins- pektorlari tomonidan tumandagi TEXNOPARK hududida ishchi xizmatchilar bilan turli favqulod- da vaziyatlar kelib chiqishining oldini olish maq- sadida profilaktik uchrashuvlar olib borilmogda. Qolaversa, tumandagi har bir tadbirkorlik sub- yektiga tashrif buyurilib, maskanning favqulodda va yong'in xavfsizligi holati o'rganildi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tadbirkorlarga tavsiya va yo'riqnoma berib borilmogda.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi inspektori,
katta leytenant.
Sh.XOLMATOV,
bo'lim inspektori.

TARG'IBOT

Yong'inlarning kelib chiqishiga asosiy sabablardan biri kattalarning farzandlariga bo'lgan e'tiborsizliklari yoki ularning ayrim qoida talablarini o'zlashtirmaganliklaridandir. Har bir yong'in inson hayotiga xavf solishi va ko'p mashaqqatlar evaziga bunyod etilgan uy-joylarini, mol-mulklarini bir zumda yonib ketishiga olib kelishi mumkin. Aynan mana shu masalalar fuqarolar o'rtasida muhokama qilinmoqda. Yong'in xavfsizligi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha harkuni o'rganishlar o'tkazilmoqda. Ushbu o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mas'ul xodimlarga yozma takliflar taqdim etilib, yuqori turuvchi tashkilotlarga taqdimnoma, axborotnomalar berilmoqda.

A.QURALOV,
Toshkent shahar FVB OYXTTEB kichik inspektori, katta serjant.

TAYYORGARLIK

Shahrisabz davlat pedagogika va Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi olimlari bilan hamkorlikda "Zilzilalarni binolarga ta'siri va aholini zilzilada to'g'ri harakatlanishga tayyorlash" mavzusida o'quv seminari o'tkazildi.

Vediokonferensiya orqali bo'lib o'tgan mazkur tadbirda ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar atroficha javob berdilar.

A.VASIYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M boshlig'i, mayor.
O.CHO'LIYEV,
katta o'qituvchi.

ISLOHOTLAR SAMARASI



Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiotosh tumani hududida yangi loyihalar asosida zamonaviy bino va inshootlarni barpo etish ishlari yuqori sur'atlarda olib borilmoqda. Bu o'z navbatida barcha obyektlarda qurilish ishlari davrida yong'inga qarshi chora-tadbirlarni to'liq bajarilishini nazorat qilish va qurilish maydonlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash, ko'chalar yoqalarida va aholi yashash punktlarida yong'in xavfsizligi qoida va talablariga zid bo'lgan bino, qurilma va to'siqlarini aniqlash hamda bartaraf etish borasida yong'in xavfsizligi xizmatiga xususan, me'yoriy texnik-ekspertiza yo'nalishidagi xodimlarga juda muhim va mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Turar joylarni noturar joyga o'tkazish yo'li bilan tashkil etilayotgan turli xil savdo, ma'muriy-maishiy, ishlab chiqarish va boshqa shunga o'xshash maskanlarni shaharsozlik normalari va qoidalariga belgilangan yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligiga, ularni qurish va qayta ta'mirlash ishlari davrida yong'in xavfsizligini ta'minlash borasidagi tadbirlarning bajarilishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Temur YUSUPBAYEV,
Taxiotosh tumani FV bo'limi katta inspektori, katta leytenant.

Buxoro viloyati FVB tomonidan "Buxoro xalqaro aeroporti" MCHJ ma'muriy binosida sodir bo'lgan shartli zilzila oqibatlarini bartaraf etishda obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalarining FVDT xizmatlari bilan hamkorlikdagi harakati" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

HAMKORLIKDA



O'quv mashqlari davomida aeroport binosi ichidagi fuqarolar xavfsiz hududga evakuatsiya qilinib, vayronalar ostida qolgan jabrlanganlar qutqarildi. Ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatilib, qisqa tutashuv natijasida yuzaga kelgan shartli yong'in o'chirildi.

H.SAIDOV,
Buxoro viloyati FVB OBYOXTTEB inspektori, kapitan.



DAVRA SUHBATI

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi 50-umumta'lim maktabida favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish va ularning oqibatlarini kamaytirishga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazildi.

Tadbirda xodimlarni va o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarni to'g'ri baholash, sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilishga ruhiy tayyor bo'lish, ularda ruhan chidamlilikni shakllantirish, zimmasidagi mas'uliyatni bajarish, jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish kabi vazifalar to'g'risida tushunchalar berildi.

Shu bilan bir qatorda, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, insonlar halok bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun amal qilinishi lozim bo'lgan xavfsizlik qoidalarini to'g'risida tushunchalar berilib, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish barchadan birdek mas'uliyat talab etishi yana bir bor ta'kidlandi.

Vahobjon VALIJONZODA,
"IES" AJ "To'raqo'rg'on IES" filiali OYOXTTEB inspektori, leytenant.

KASALLIKLARGA QARSHI

Olmazor tumanidagi Qoraqamish dehqon bozorida favqulodda vaziyat hamda yong'in yuz berganda bartaraf qilish yuzasidan tuman FV bo'limi va tuman IIOFMB xodimlari hamkorligida profilaktik uchrashuv o'tkazildi.

Unda bozor rahbari hamda sotuvchi xizmatchilariga jinoyatchilikning oldini olish, video kuzatuv kameralarini soz holda saqlash, noqonuniy savdo sotiqqa yo'l qo'ymaslik, favqulodda vaziyat hamda yong'in yuz berganda bartaraf qilish usullari va is gazidan zaharlanishning oldini olish, o'ta xavfli va yuqumli kasalliklar "Qrim kongo gemorragik isitma", "Kuydirgi" va Quturish kasalliklariga qarshi olib boriladigan epidemiologik chora va tadbirlar ko'rish, ochiq elektr simlaridan foydalanmaslik, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, yonuvchan mahsulotlarini bino hududida haddan ortiq to'plamaslik yuzasidan tushuntirishlar olib borildi.

Jamshid PO'LATOV,
Olmazor tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, podpoldkovnik.

TUSHUNTIRISH ISHLARI

Mahallalarda o'tkazilayotgan tadbirlarda yong'inlar, havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida mutaxassislar tomonidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borildi. Zilzila, yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida davra suhbatlari o'tkazilmoqda hamda faqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda foydalaniladigan maxsus texnikalar va asbob-anjomlar namoyish etilmoqda.

Bundan tashqari, qurilish obyektlarida o'tkazilgan tadbirlarda qurilish jarayonlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga va normalariga amal qilish hamda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday favqulodda vaziyatlardan ogoh bo'lish va uning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

M.YULDASHEV,
Toshkent shahar FVB OYXTTEB kichik inspektori, katta serjant.

FUQAROLAR XAVFSIZLIGI YO'LIDA



"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiuran" DK ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi, Shimoliy kon boshqarmasi ob'ektlarini yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi profilaktika va nazorat bo'linmasi inspektori hamda 8-yong'in-qutqaruv qism harbiy xizmatchilari bilan birgalikda Uchquduq tumanidagi harbiy qismda yong'inlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida yong'in o'chirish texnikasi va aslaxa-anjomlarning ko'rgazmali namoyishi ham o'tkazilib, sodir bo'lgan yong'inlarni bartaraf etishda ishlatiladigan yong'in o'chirish qurollaridan qanday foydalanish bo'yicha tushunchalar berildi.

Tadbir davomida qism harbiy xizmatchilari o'zlarining qiziqtirgan savollariga mutaxassislar tomonidan javob oldilar.

Ma'rufjon HAYITOV,
"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi kichik inspektori, katta serjant.
Nodirjon HAYITOV,
SHKB YOXTTE bo'limi 8-YOQQ smena boshlig'i, kapitan.

OGOH BO'LING

Toshkent viloyati FVB "Ko'ksaroy" qarorgohi OYXTTEB shaxsiy tarkibi tomonidan Qibray tumani "Yuqori-yuz" MFY hududida yashovchi aholi xonadonlarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va yong'inlarning oldini olish borasida targ'ibot ishlari olib borildi.

Tadbir davomida aholiga gaz qurilmalaridan foydalanish, ulardan kiyim quritish maqsadida foydalanmaslik, gaz hidini sezganda to'g'ri harakat qilish tartibi, mo'rikonlarni tozalash, elektr tarmog'iga ulangan asbob uskunalarini qarovsiz qoldirmaslik, ochiq elektr kabel va simlardan foydalanmaslik va isitish tizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlar va ularning oqibatlarini to'g'risida tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, fuqarolar tomonidan berilgan savollarga javob berildi.

O.VALIJONOV,
Qibray tumani OYXTTEB inspektori, leytenant.

ЎЗБЕК АДАБИЙ ТИЛИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Ер юзидан қанча миллат, халқ, элат, қабила бўлса, шунча тил бор. Тилсиз халқ йўқ. Халқсиз эса тил ҳам бўлмайди. Булар эгизак тушунчалардир, бирдан бирини айириб бўлмайди, уларни айириб қўйилса, иккиси ҳам ўзлигини йўқотади. Халқ бошқа бир халққа қўшилиб кетади, унинг тили эса ўлик тилга айланади.

Ҳалигача умуман ўрганмаган тиллар ҳам борки, улар ҳақида ҳеч қандай маълумот тополмайсиз. Масалан, Амазон ҳавзасида дунё тараққиётдан узилган ва ўз қонун-қоидалари билан яшайдиган қабилалар бор. Бразилиялик этнолог Сидней Поссуело ҳукуматга бу қабилалар ҳаётига аралашмасликни тавсия қилган. Чунки уларнинг турмуш тарзига аралашув маҳаллий аҳолининг йўқ бўлиб кетишига олиб келади. Шу сабаб Бразилия ҳукумати мазкур ҳудудларга бегоналарнинг киришини тақиқлаш орқали цивилизациядан узилган қабилаларни муҳофаза этишни мақсад қилган. Дунё тилларининг номланиши хусусида ҳам ноаниқликлар бор. Бундай ҳолат баъзи тилларнинг қандай номланиши, кимга тегишлилиги масаласида муаммолар келтириб чиқаради, чунки маълум тилда сўзлашувчилар одатда уларни “бизнинг тилимиз” ёки “она тилимиз” деб аташади, баъзи тилларга номлар миссионерлар ёки тилшунослар томонидан берилган. Шунинг натижасида у ёки бу номга қанча аниқ тиллар мос келишини аниқлашда қийинчиликлар мавжуд.

Ривожланган ҳар қандай тил, шу жумладан ҳозирги ўзбек тили ҳам икки асосий функционал турга: адабий тил ва жонли сўзлашув тилига бўлинади. Ҳар бир муайян тилнинг соҳиби, ташувчилари бўлган элат ёки миллатнинг вакиллари томонидан жонли сўзлашув тили болалиқдан бошлаб эгалланади. Адабий тил, унинг меъёрлари ва қонуниятлари эса балоғатга етган, камолотга эришган кишининг шаклланиши жараёнида ўрганиб, ўзлаштириб олинади. Бунда, айниқса, оила ва мактаб, олий ўқув юрти, адабий тилни эгаллаган шахслар, олимлар билан яқин алоқада бўлиб туриш ва улар томонидан ёзилган турли жанрдаги адабиётларни ўқиш, ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.


Умумхалқ тилининг юқори шакли ҳисобланган адабий тил аниқ ва муайян бир тизимда

ҳар бир даврнинг тилига хос меъёр, тартиб-қоидаларни ифодалайди. Миллий адабий тилни, унинг оғзаки ва ёзма шакллари аниқлашда энг муҳим ва асосий белги унинг муайян бир меъёрга, яъни аниқ бир маромга, тартиб-қоидаларга солинганлигидир. Адабий тил тараққиётининг дастлабки даврларига тегишли ёдгорликларни ўрганиш унда бир қатор меъёрлар мавжудлигини, эскилари йўқолиб кетиши, янги меъёрлар юзага келишини, янги ва эски меъёрларнинг мувозий ҳолда қўлланганлигини кўрсатади. Демак, меъёр фақат тилнинг ҳозирги ҳолати, синхрония учунгина характерли бўлиб қолмай, балки диахронияда ҳам вужудга келади. Адабий тил лексикада ҳам, фонетика ва грамматик қурилиш соҳасида ҳам ўз меъёрлари, қоидалари билан ажралиб туради. Бу меъёрлар грамматика дарсликлари, қўлланмалари ва барча хил луғатларда белгилаб қўйилган. Бу меъёрлар шу тилда сўзлашувчи барча кишилар учун умумий ва зарурий ҳисобланади.

Адабий тилнинг оғзаки шакли маъруза ва суҳбатларда, ёзма шакли эса фан, техника ва адабиёт асарларида, расмий иш ҳужжатларида, нашриёт ва матбуот соҳаларида ишлатилади. Лекин булар ўзаро узвий равишда боғланган бўлади. Маърузалар, ҳар хил чиқишлар ўз хусусияти билан ёзма адабий тилга яқин туради. Шунингдек, ёзма адабий тилда, айниқса, бадий асарларда сўзлашув нутқида хос сўз ва иборалар ҳам қўлланади. Шуни қайд этиш кераки, “оғзаки”, “сўзлашув”, атамалари адабий тилнинг шакллари ҳамда миллий тилнинг функционал турларидан бирини ифодалаш учун хизмат қилади.

Ўзбек адабий тили тарихи ёзма ёдгорликлар тили тарихидан иборат. Бу ҳодиса, айниқса, қадимги туркий адабий тил ва эски ўзбек адабий тили, шунингдек, миллий адабий тил ёдгорликлари учун характерлидир. Ёзма ёдгорликларда ташкил топиб қатъийлашган тил меъёрлари, қоидалари аста-секин сўзлашув нутқида ҳам ўта бошлайди. Ёзма нутқ шакли, оғзаки нутқ шакли, адабий тилнинг ёзма ва оғзаки шакллари каби тушунчаларнинг пайдо бўлиши асосан шу ҳодиса билан боғланган.

Ўзбек адабий тилининг барча шакллари хос аниқ фактларни турли даврларда яшаган йирик ёзувчиларнинг бадий асарларида учратиш мумкин. Жумладан, Алишер



Навоийнинг асарлари XIV – XV асрлардаги эски ўзбек адабий тилининг хусусияти, унинг оғзаки ва ёзма шакллари, шунингдек жонли халқ тили ҳамда адабий тилнинг оғзаки шакли қандай эканлиги тўғрисида аниқ тасаввур бера олади. Ёзма манбалар асосида ўтган асрлардаги жонли халқ тили, сўзлашув нутқи хусусиятларини ўрганишда тарихий обидаларни, бадий асарларнинг матнларини, айниқса, ўз даврига хос нутқ амалиётини акс эттирувчи асарларни танлаш жуда муҳим аҳамият касб этади.

Дарвоқе, шу ҳам айтиш лозимки, миллоддан олдинги даврлардан бошлаб X асрларгача бўлган даврда ўзбек адабий тили фанда қадимги туркий тил деб қадимгилар эди. Қадимги халқ оғзаки ижоди намуналари, Ўрхун-Энасой ёдгорликлари шу тилда яратилган. XI – XIV асрларда амалда бўлган тил эски туркий тил, деб аталади. Атоқли олимлар Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону-луғатит-турк” (Турк тиллари девони), Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билим” (Саодатга йўлловчи билим), Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибатул ҳақойиқ” (Ҳақиқатлар армуғони), Хоразмийнинг “Муҳаббатнома”, Рабғузийнинг “Қиссаси Рабғузий” асарлари мана шу тилда ёзилган. XV асрдан XIX асрнинг иккинчи ярмигача қўлланган тил эски ўзбек адабий тили деб номланган. Улуғ уламолар Атойи, Саккокий, Сайфи Саройи, Лутфий, Алишер Навоий, Бобур, Машраб, Гулханий, Завқий, Муқимий, Фурқат ва бошқа кўплаб ижодкорларнинг асарлари шу тилда ёзилган. Ўзбек ҳукмдори Муҳаммад Шайбонийхон ўзбек тилида ғазал, рубоийлар ҳам битган. Унинг ғазал, рубоийларидан айримлари ва “Бахрул худо” номли

достони, ўғли Муҳаммад Темур султонга атаб ёзган панд-насихатлардан иборат китоби бизгача етиб келган. XIX асрнинг иккинчи ярмидан ҳозирги давргача ишлатиб келинаётган тил ҳозирги ўзбек адабий тили, деб аталади. “Туркистон вилояти газети” нашр қилина бошлаган вақтдан эътиборан то ҳозирги кунгача ёзилган барча асарлар ҳозирги ўзбек адабий тилининг намуналари ҳисобланади.

Ўзбек тили XI асрдан бошлаб мустақил тил сифатида шакллана бошлади ва XIII асрда эски ўзбек адабий тили шаклланиб бўлди. Эски ўзбек тилининг ривожини ҳазрат Алишер Навоийнинг номи билан боғлиқдир. У эски ўзбек тилининг кенг имкониятларидан фойдаланган ҳолда ажойиб асарлар ёзибгина қолмасдан, бу тилни илмий жиҳатдан чуқур тадқиқ қилувчи “Муҳокамат-ул-луғатайн” номли йирик илмий асар ҳам ёзган ва унда ўзбек тилининг бошқа тиллардан ҳеч кам эмаслигини ишонарли мисоллар билан исботлаб берган.

Дарҳақиқат, ўзбек тили жаҳоннинг энг йирик 50 тилларидан бири бўлиб, туркий тилларнинг уч тармоғи – қарлуқ, қипчоқ ва ўғуз лаҳжаларини бирлаштирган. Сўзлашувчилар кўплиги бўйича қардош тиллар орасида 2-уринда туради. Ҳозирда биз гаплашаётган ўзбек тили XX асрда шакллана бошлаган. Фарғона лаҳжаси унинг асосини ташкил этади. Ривожланиш тарихи давомида ўзбек тилида уч хил ёзув мавжуд эди. Ўтган асрнинг 20-йиллари охиригача ўзбекларнинг этник гуруҳи араб алифбосига асосланган эди. Собиқ совет ҳокимияти пайдо бўлиши билан ёзув бир қатор ислохотларга дуч келди. Сўнгра 1938 йилгача латин алифбоси ишлатилган,

кейин эса кирилл алифбосига ўтилган.

Қадимий тил сифатида эътироф этилаётган ўзбек тили халқимиз учун миллий қадрият, ўзликни англаш, мустақил давлатчилик тимсоли, маънавий бойлик, халқимиз ҳаётидаги сиёсий-ижтимоий, маънавий-маърифий тараққиётда муҳим аҳамият касб этиб бормоқда. Тилнинг ўрнини билишимиз, биз қайси авлод вакиллари эканлигимизни яна бир бор ёшларга ўқитишимиз учун архив ҳужжатларини кўтаришнинг ўзи кифоя. Минглаб аждодларимиз ўз тили ҳимояси учун қатагон қилинган.

Оилада миллий тилимизга бўлган эътибор кучли бўларкан, бола, аввало эътибор ва эъозланган она тилда фикрлайди. Ўзликни англашда тилни биринчи ўринга қўйсақ инсон маънавиятини шакллантиришда тилнинг ўрни келиб чиқади. Ўзликни англашда тил сиёсатини юритиш ва тарих зарварларидан акс этган ноёб асарларни халқимизга етказиб бориш муҳим омиллардан биридир. Қўлёмалар, жадид намоёндаларининг ҳаёти ва ижодини ўрганишни тобора кучайтириш муҳим омил сифатида кўриниб қолмоқда. Миллат ҳаётида юз бераётган ўзгаришлар тилда ўз аксини топади. Тил йўқолса, миллат ҳам таназулга юз тутари. Бунга тарихда мисоллар бисёр. Жадид бобокалонимиз Абдулла Авлонийнинг ушбу гапи фикримизга далил бўлади: “Ҳар бир миллатнинг дунёда борлигини кўрсатадиган ойнаи ҳаёти тил ва адабиётидур. Миллий тилни йўқотмак миллатнинг руҳини йўқотмақдир”.

Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлади.

ЧИНГИЗХОННИНГ ҚАБРИ ҚАЕРДА?

Мўғулистонда Чингизхон бутун халқнинг чин манодаги фахру ифтихорига айланган. Халқаро аэропорти, йирик меҳмонхоналар, рестороанлар, кўчалар, майдонлар, давлат мукофотлари Чингизхон номи билан аталади. Парламент майдонида Чингизхоннинг тахтада ўтирган ҳайкали бор. У туғилган Делюн-Болдок водийсида ҳам улкан ёдгорлик ўрнатилган. Пойтахтдан 54 километр масофада Туул дарёси бўйида Чингизхоннинг от устидаги 40 метрлик ҳайкали ўрин олган.

Афсоналарда келтирилишича, Чингизхон жон бераётганида ўзи дафн этиладиган жойни қаттиқ сир сақлашни буюрган. Қайғудаги жангчилар саркарданинг жонсиз танасини олиб кетишаркан, йўлларида чикқан гувоҳларни қиличдан ўтказишган. Чингизхонни дафн этишгандан сўнг бирор бир из қолдирмаслик учун унинг қабри устидан минглаб отларни қўйиб юборишган. Мўғул хроникалари ва саёхатчи Марко Полонинг ёзувларига кўра, Чингизхоннинг тобутини ясаганлар махсус жангчилар томонидан ўлдирилган. Вазифа бажариб бўлингач, жангчиларнинг ўзи ҳам қатл этилган. Хоннинг тобути Гоби чўли орқали белгиланган жойга қараб олиб кетилар экан, унинг ўлимидан хабар топган киши борки, омон қолдирилмаган.

Орадан 800 йил ўтибдики, ҳеч ким Чингизхоннинг қабрини тополмади. Халқаро экспедициялар тарихий ёзувларга таяниб сағанани топишга уриниб кўришди, маҳаллий ландшафт, ҳатто коинотдан олинган суратларни ўрганиб чиқишди. Чингизхон дафн этилган жойни аниқлаш ниятида сунъий йўлдош орқали олинган суратлардан фойдаланди. Бироқ натижа йўқ. Бу қидирув ишлари би-

лан одатда хорижлик мутахассислар шуғулланди, мўғулларнинг ўзлари эса хоннинг қабри топилишини истамайди.

Қадимги одатга кўра, хонларни шунчаки дафн этишмаган, уларнинг қабрига қуроллар, қимматбаҳо ва маросим одатлари билан боғлиқ буюмларни ҳам қўшиб кўмишган. Чингизхоннинг қабри ҳам империянинг турли бурчакларидан келтирилган хазиналар билан тўла деб ҳисоблашади. Мўғулистон худуди жуда йирик ва кам ўзлаштирилган. Бу жойлардан қадимги сағанани қидириб топиш осон иш эмас. Доктор Димажава Эрденебатар Мўғулистон пойтахти Улан-Батор шаҳри университетида археология факултетини бошқаради. У афсонавий сағанани қидириш бўйича биринчи япон-мўғул қўшма экспедициясида қатнашган. Қидирув ишларини Чингизхон туғилган Хентий вилояти атрофида бошлашга қарор қилишган. Мўғул ҳукумати экспедиция ишини тўхтатган.

Афсоналардан бирига кўра, Чингизхон Улан-Батор шаҳридан 160 км. олисдаги Бурхан-Халдун тоғларида дафн этилган. Бу мўғуллар учун муқаддас тоғ. Чингизхон ёшлигида худди шу тоғ чўққисиди душмандан яширинган ва кейинчалик бу ерга қайтишга онт ичган. Бироқ олимлар қабрнинг шу ердалиги борасида бир тўхтамга келишгани йўқ. Манбаларда Чингизхон оғир хасталикка чалинган ва ёши 70 га яқинлашган бўлса-да, навбатдаги жангга йўл олиб, ғанимлар қаршилигини енггани, бироқ тўлиқ ғалабагача яшай олмагани айтилади. 1227 йилда хон вафот этади.



Хоннинг ўлимини ҳеч ким кутмагани, у худди ёшлигидагидек эгар устида туриб, қўшинни бошқарган. Чингизхоннинг ўлими айнан қандай содир бўлгани ҳақида ҳам аниқ маълумотлар йўқ. Аммо жанг пайти яралангани ёки ўлдирилгани ҳақида ҳам манба йўқ. Ўлимидан сўнг Чингизхоннинг жасади Мўғулистонга қайтарилади. Манбалардан бирида хоннинг жасади у туғилган жойларга, ҳозирги Хентей вилояти худудиди, Онон дарёси яқинида дафн этилган дейилади. Ҳеч ким тополмаслиги учун қабр устидан дарё ўзани ётқизилган. Тарихчи Рашидиддин ҳам мўғул хони дафн этилган жой Бурхан-Халдун тоғларида бўлиши мумкинлигини ёзади, чунки бу жойлар бегоналар учун ёпиқ бўлган ва рухсатсиз ўтишга уринган киши қатл этилган. Унинг ёзишича, бир кун Чингизхон Онон дарёси бўйларида ов қилиб юрар экан, шу жойдан кўзга ташланган қиялик хоннинг эътиборини тортади. Хон қандайдир қувонч ва чуқур руҳий сокинликни ҳис этади. Шунда у ёнидагиларга, “Бу жой менинг қабрим учун мос экан. Эслаб қолинглар ва белги қўйинг”, дейди. Қидирув экспедицияси аъзоси ва Урумчидаги тарихий музей раҳбари, профессор Сан Хунинг таъкидлашича, афсонавий лашкарбошининг сағанасини Хитой худудидан, мўғул-хитой чегараси яқинидаги Олтой тоғлари этақларидан қидириш зарур.

МЎМИЁ ҚАНДАЙ ТОПИЛАДИ?

Мўмиё қадимги тиббиётда доривор сифатида бундан 100 минг йил аввал маълум бўлган. Мўъжизакор восита ҳақида Марказий Осиё, Ҳиндистон, Фаластин, Кичик Осиё ва Юнонистон халқлари қўлёзмаларида учрайди. Миллоддан аввал яшаб ўтган Арасту мўъжизавий мўмиёнинг шифобахш хусусиятларини батафсил тасвирлаган ва уни туғма карликда, бурундан қон кетишида даво сифатида тавсия қилган. Буюк алломалар ҳам бу ажойиб малҳамни мукаммал даволовчи восита деб атаган. Улар мўмиёни асал билан биргаликда қўллаш тиббиётда мўъжиза яратади деган. Муҳаммад Закариё ал-Розий тоғ қатрони фалажни ва бош айланишини даволашини ёзади. Абу Райҳон Беруний суяк синишида мўмиёдан яхшиси йўқ дея таъкидлаб ўтган. Ибн Сино ўзининг “Тиб қонунлари” китобида мўмиёни меъдани мустаҳкамлайдиган, нафас олишни енгиллаштирадиган мукаммал дори деб тавсифлаган. Арасту ҳам мўмиёдан аввал унинг сифатини аниқлаб сўнг фойдаланишни тавсия этган.

Мўмиё қоялар ёриқларидан сизиб чиқадиган қатронсимон модда, мураккаб биологик табиий маҳсулот. Мўмиё ҳамирдай мулойим, таъми аччиқ ва баъзан тоза қора шоколад таъмини эслатади. У тилла ранг, кумуш ранг, мис ранг ва қорамтир-қўнғир тусда бўлади. Манба-

ларга қараганда, мўмиё денгиз сатҳидан 3500 – 5000 метр баландликдаги юқори тоғ қояларида учрайди. Бу табиий малҳам асосан, жанубий тоғ тизмаларида, ёгингарчилик йилига 400 – 600 миллиметрни ташкил этадиган, куёш радиацияси юқори, кучли шамоллар эсиб турадиган, ҳаво ҳарорати кескин тебравуви жойларда ҳосил бўлади. Фанда ўрганилгунга қадар мўмиёнинг тоғларда ҳосил бўлиши ва ноорганик таркиби туфайли у олтин, кумуш, мис, темир каби элементлар қаторида туради деб тахмин қилинган. Форларда яшайдиган кўршапалаклар ва бошқа майда кемирувчиларнинг ахлатларидан ҳосил бўлган деган фикрлар юзага чиққан. Замонавий тушунчалар бўйича эса мўмиё ўсимликлардан ҳосил бўлади, доривор ўсимликлар қолдиқлари чириб қотиши натижасида мўмиёга айланади деб ҳисоблашади. Мўмиё йиғиб олинадиган жойлар бутун дунё бўйича бир нечта – у Кавказ, Марказий Осиё, Россия, Ҳиндистон, Хитой, Непаль, Эрон, Бирма тоғларидан топиладиган. Бугунги кунда энг яхши сифатли мўмиё Олтой мўмиёси ҳисобланади. Худуд жуғрофияси кенг бўлса-да, мўмиё бор жойларни аниқлаш анча мушкул ва бу қимматли дориворнинг захираси унчалик катта эмас.

Олтой тоғларида топилган мўмиё бўлақлари ўрганилганда уларнинг ёши

130 йилдан 900 йилгача эканлиги маълум бўлган. Бу доривор сувда яхши эрийди, шунинг учун уни олдиндан сувда, сутда, шарбат ёки чой билан ичга қабул қилиш, томчилар, крем, мазлар кўринишида сиртга қўллаш мумкин. Мўмиё юқори биостимулятор хусусиятга ҳам эга. Унинг таъсирида организмда алмашинув жараёнлари фаоллашади, эритроцитлар сони ортиб, қондаги гемоглобин миқдори кўпаяди. Тоғ доривори микробларга қарши таъсирга эга, организмнинг ҳимоя кучларини оширади, юқумли касалликлар, шамоллаш билан боғлиқ хасталиклар – ангина, суяк сили, замбуруғли касалликлар, экземаларнинг айрим турларини даволашда қўлланилади. Буюрилган миқдорда тўғри қабул қилинганда мўмиё организмни мустаҳкамловчи, тетиклаштирувчи ва даволовчи безарар восита, деб ҳисобланади.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

ЭЪЛОН

ФВВ Академияси (аввалги ИИВ Ёнғин хавфсизлиги олий техник мактаби) томонидан 2004 йилда Яхшибоев Дилмурод Хаитович номига берилган “В” серияли № 143813 сонли диплом ва унинг иловаси йўқолганлиги сабабли

БЕКОР ҚИЛИНАДИ



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЮНОВ

*Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.*

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба кунини чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри
таҳририят нуқтаи назаридан
фарқланиши мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А-уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун - 382

Газета “Шарқ НМАК”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Миробод тумани
Буюк Турон кўчаси 41-уй
Буюртма № Г-1052
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади - 10000 нусха